

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ZAMONAVIY TA’LIMNING, MUAMMO VA YECHIMLARI

***Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti
boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-nchi bosqich talabasi
Nurishev Nurberdi Novat ogli***

Annotatsiya: Mazkur maqolada yurtimizda professional ta’lim tizimini ilg‘or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim bosqichlarini joriy qilish orqali malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash ham-da mazkur jarayonga oshirilayotgan ishlar muhokama qilinadi.

Tayanch so‘zlar: Zamonaviy ta’lim, uyg‘onish davri , uchinchi renessans, milliy ta’lim , siyosiy qarash, siyosiy bilimlilik, siyosiy axloqlik, siyosiy harakatchanlik.

O‘zbekistonda ta’lim islohotlarini amalga oshirish bo‘yicha butunlay yangicha g‘oyalar, yondashuvlar, tamoyillar va yo‘nalishlarga asoslangan bosqichga qadam qo‘ydi. Shu sababli O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan quyidagi vazifa qo‘yildi: "Ta'lim islohotlari orqali O‘zbekistonda yangi Uyg‘onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratishni o‘zimizga asosiy maqsad qilib belgiladik. Xususan, eng dolzarb vazifalardan biri sifatida professional ta’lim muassasalaridagi pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimini ham-da o‘quv metodik ta’minot bazasini xalqaro andozalarga muvofiq takomillashtirish ekanligi ta’kidlandi.¹¹

¹ Xalq ta’limi vazirligi Axborot xizmati

Mazkur ishni sifatli amalga oshirish uchun xorijiy ekspertlar, olimlar, amaliyotchilar va tajribali pedagog kadrlardan iborat malakali ekspertlarni jalb qilgan holda, ushbu turdagi muassasalarda o'qitiladigan mutaxassislik fanlari bo'yicha "Modulli o'quv dasturlarini ishlab chiqish texnologiyasi" metodik qo'llanmasini yaratish va ta'lim muassasalariga tatbiq qilish lozim bo'lishi aytiladi. Professional ta'lim sifatini oshirish, o'qitishning zamonaviy uslub va metodlari joriy etish, metodik ta'minotni oshirish uchun xorijiy ekspertlar, olimlar, tadqiqotchilarni jalb qilgan holda ijodiy guruhlar shakllantirish ham-da ular tomonidan ta'lim sohalar bo'yicha mutaxassislik fanlarini zamonaviy o'qitish metodikalari va uslublari bo'yicha ishlanmalar yaratish, nashr etish va ta'lim muassasalariga yetkazish zarurligi ta'kidlandi.

Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi.

Matbuot xizmati Mamlakatimizda 2019-yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi.¹² Ushbu hujjatga intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish ham-da xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi.

Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish ham-da ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish ham-da boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini

¹² O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish KONSEPSIYASI
(O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son farmoni)

yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi va o'z samarasini berib kelmoqda.

Zamonaviy ta'limni rivojlantirish avvalambor biz uchun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi chunki hozirgi kunda hamma innovatsion texnologiyalar asosida jadal rivojlantirish uchun juda katta o'zgarishlar va texnologik jihatdan tobora yurtimizda zamonaviy ta'limga bo'lgan ishlar soni oshmoqda. Shu bilan birgalikda ta'lim tarbiya jarayonini amalga oshirishda zamonaviy ta'limning o'rni juda katta ahamiyatga egadir xulosa shundaki biz yoshlarga ta'limni o'zlashtirish uchun juda katta yordam berib kelmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Turg'unov S.T. "Ta'lim muassasalarini boshqarishda innovatsion faoliyat".
2. R.J. Ishmuhamedov, M.A.Yuldashev "Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar".
3. M.X.Baybayeva "Ta'lim tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalar"